

HUDUDIY SANOAT TARMOQLARINI SANOAT KLASSTERLARI SHAKLIDA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

Mirzayev Abdullajon Topilovich

Farg'ona davlat universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası mudiri,

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqolada hududiy sanoat tarmoqlarini sanoat klasterlari shaklida rivojlantirishning nazariy, tashkiliy va iqtisodiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda sanoat klasterlarining tarkibiy tuzilishi, ichki va tashqi muhiti, ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda ularning hududiy sanoat salohiyatidan foydalanishdagi roli tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Sanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, mahalliy resurslar, malakali mehnat, ilmiy-ta'lim salohiyati, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, moliyaviy infratuzilma va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari aniqlangan. Shu bilan birga, klasterlarni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi institutsional, moliyaviy, tashkiliy va innovatsion omillar tizimlashtirilgan. Tadqiqot davomida hududiy sanoat klasterlarining rivojlanish darajasini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini uyg'unlashtirgan holda baholash imkonini beruvchi kompleks yondashuv asoslangan. Mazkur yondashuv hududning sanoat ixtisoslashuvi, bandlikdagi tarkibiy o'zgarishlar, sanoat konsentratsiyasi va sifat ko'rsatkichlarini hisobga olishga imkon beradi. Shuningdek, hududning mavjud va maqsadli sanoat profilini shakllantirish, ustuvor tarmoqlarni aniqlash hamda klaster siyosatini samarali tashkil etish mexanizmlari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish, korxonalar o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni mustahkamlash, ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, innovatsion faollikni oshirish va investitsiyalarni jalb etish uchun metodik asos yaratadi. Taklif etilgan yondashuvdan hududlarning sanoat salohiyatini baholash, klasterlarni rivojlantirish ustuvorliklarini belgilash va uzoq muddatli sanoat strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Bunda davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyat, biznes federatsiyalari, moliya institutlari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim tashkilotlari hamda sanoat korxonalarining manfaatlarini muvofiqlashtirish klaster samaradorligining muhim sharti sifatida qaraladi. Tadqiqotda klaster rivojlanishining ko'p darajali xususiyati ham e'tiborga olinib, milliy, hududiy, mintaqalararo va xalqaro darajadagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi asoslangan. Ushbu natijalar hududiy sanoatni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada klasterlash hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: hududiy sanoat tarmoqlari, sanoat klasterlari, klaster yondashuvi, sanoat salohiyati, sanoat kooperatsiyasi, klaster siyosati, innovatsion klaster, hududiy rivojlanish.

KIRISH

Jahonda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, jumladan, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va mahalliy mineral-xomashyo resurslar negizida yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olib borilgan tahlillarga ko'ra, hozirgi kunda "iqtisodiyotimizda davlatning ulushi 55 foizdan yuqori ekanligi hamda davlat ulushi bor korxonalar soni

2300 dan ortiqni tashkil etishi” sanoat korxonalarida rivojlantirish jarayonlarini yanada jadallashtirishni talab etadi. Sanoat tarmoqlari salohiyatini oshirishda mavjud va istiqboldagi imkoniyatlardan samarali foydalanish, tejamkor resurs komponentlarni integral baholash, sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish, sohaga katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish hamda faoliyatni samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyatga kasb etmoqda.

Mamlakatimizda tizimli demokratik bozor islohotlarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlaridagi tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini izchil davom ettirish – O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining asosiy omilidir. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining yildan-yilga barqaror ravishda o'sishi an'anaviy xomashyo tarmoqlari yoki jahon bozoridagi qulay bozor infratuzilmasi, ayrim xomashyo va materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, aksincha, raqobatbardosh tayyor sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini jadal hamda ustuvor rivojlantirish hisobiga ta'minlanadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida sanoat tarmoqlari salohiyatini oshirishda «qo'shimcha qiymat zanjirlari»ni kengaytirish, ishlab chiqarish tannarxi va xarajatlarini kamaytirish, tayyor mahsulotlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, kichik sanoat va maxsus iqtisodiy zonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish va faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tarmoqlar va hududlarning sanoat salohiyatini oshirish maqsadida tartibga solish muhiti va standartlarni takomillashtirish kabi tadbirlar yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. «Sanoatning «drayver» sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish: jumladan, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish, yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy qilish....»³⁷ vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni ijrosi sanoat tarmoqlaridagi mavjud resurslardan samarali foydalanish, sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini oshirishda innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy qilish hamda jahon andozalari asosidagi texnologiyalardan sohada foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish, uni hududlar miqyosida rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari juda ko'p olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan.

N.N.Bursov va M.Best ishlarida sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq muhim masalalarga e'tibor

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

berilgan [1,2].

G.A.Vlaskin va YE.B. Lenchuk ishlarida sanoat siyosatini ishlab chiqishda va yuritishda sanoatni innovatsion rivojlantirishning nazariy-amaliy tomonlari tadqiq qilingan [3].

Hududlarning ishlab chiqarish, tabiiy resurslari va hududni rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib maxsus ishlab chiqilgan konsepsiya asosida sanoat ishlab chiqarishni sanoat zonalarida tashkil etish va rivojlantirish masalalari A.O.Yegorova, S.N.Kuznetsova [4] hamda V.P.Kuznetsov [5] ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Lekin, bu tadqiqotlarda ilgari surilgan masalalar Rossiya federatsiyasi sharoitiga to'g'ri keladi. S.S. G'ulomovning ilmiy tadqiqotlarida sanoat sohasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari keng ochib berilgan va sohada uchraydigan muammolarning yechimiga qaratilgan [6].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar T.V.Kolosova, A.G.Koryakova va T.A.Xudyakova tomonidan taklif etilgan "sanoat tarmoqlarini hududiy barqaror rivojlantirish" konsepsiyasining uslubiyotlari ko'p hollarda iqtisodiy salohiyatni oshirish, sanoatning iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholashga asoslangan iqtisodiy yondashuvdan foydalaniladi. N.N.Sisina, A.D.Ursulalar o'zlarining tadqiqotlarida sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirish jarayonida tabiiy muhitni saqlash zarurligiga qaratilgan ekologik yondashuvdan foydalangan. Yondashuvlarning kamchiligi shundaki, ular barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy prinsipiga – barqaror rivojlanish omillari muvozanatiga mos kelmaydi [7,8,9,10,11].

YE.N.Kucherova, O.K.Karpova, T.E.Melnik, N.A.Xomyachenkova tomonidan ishlab chiqilgan atamaning ta'riflari iqtisodiy (aholi farovonligini oshirish), ekologik (atrof-muhit iste'molini minimallashtirish sharoitida tabiiy resurslar, shuningdek ekotizimlarga yetkazilgan zararni istisno qilish) va barqaror rivojlanishning ijtimoiy (ijtimoiy ta'minot darajasini barqarorlashtirish va yaxshilash) jihatlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar hisoblanadi [12,13,14,15].

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy taraqqiyot davrida O'zbekistonda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilib, chet el sarmoyalari ishtirokida zamonaviy korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususiyl mulkka asoslangan korxonalar ham yildan-yilga ko'paymoqda. Natijada shahar va qishloqlarda eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan sanoat tarmoqlari barpo etilishi hisobiga ichki bozor talablari to'liq ta'minlanib, aholi ehtiyojlaridan ortgan mahsulotlarning bir qismi jahon bozoriga eksport qilinmoqda.

Sanoat klasterlarini shakllantirishda tarkibiy muvozanatga ularning tarkibiga turli ishtirokchilar guruhlarini kiritish orqali erishiladi:

A – "klasterning harakatlantiruvchi kuchlari" - klasterning asosiy yakuniy mahsulotlarini ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari, ular tashqi muhit ta'siriga iqtisodiy jihatdan eng chidamli, raqobatbardosh, yuqori innovatsion salohiyatga, boshqaruv madaniyatining yuqori darajasiga, klasterni rivojlantirish motivatsiyasiga ega.


V – "qo'llab-quvvatlash tarmoqlari" - ishlab chiqaruvchilar va yetkazib

beruvchilar: ma'lum bir sifatni ishlab chiqarish vositalari (shu jumladan mehnat buyumlari - xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar va boshqalar; mehnat vositalari - mashinalar, dastgohlar, asboblari va boshqalar); klasterga jalb qilingan tegishli mahsulotlar; guruh korxonalari mahsulotlari reytingida past bo'lgan klasterning asosiy mahsulotlari.

C – "qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar" - moliyaviy, konsalting, ilmiy-tadqiqot, rivojlantirish, ta'lim muassasalari va tashkilotlari, venchur kapital kompaniyalari, "rivojlanayotgan" tashkilotlar (biznes-inkubatorlar, texnoparklar va boshqalar).

Sanoat klasteri muhiti uning faoliyati va samaradorligiga ta'sir qiluvchi barcha omillarning kombinatsiyasidir. Sanoat klasterining ishlashi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi atrof-muhit omillarini klasterga ta'sir kuchiga ko'ra uch toifaga bo'lish mumkin. Birinchi toifa - davlat hukumati (davlatning umumiy iqtisodiy siyosati, soliq siyosati, sanoat siyosati, ijtimoiy-demografik siyosat, fan va ta'lim siyosati, qonunchilik) tizim. Ikkinchi toifa - hudud (hududning resurslar mavjudligi va infratuzilmasi, hududiy hokimiyat organlari faoliyati, hududiy iqtisodiy siyosat yo'nalishlari, hududdagi ijtimoiy-demografik vaziyat, hududiy mehnat bozori, hududning ilmiy va o'quv bazasi). Uchinchi toifa - bu hududning resurslari va infratuzilmasi.

Tadqiqot ishi natijasida, sanoat klasteridagi xo'jalik yurituvchi subektlarning o'zaro munosabatlarning tashkiliy-iqtisodiy tuzilishi ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Sanoat klasteridagi o'zaro munosabatlarning tashkiliy-iqtisodiy tuzilishi³⁸

³⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bugungi kunga kelib, innovatsion klaster – fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi mezonini ekani ayon bo'lib qoldi. Ayni kunlarda mamlakatimizning deyarli barcha viloyatlari o'zining katta – kichik klasterlariga ega. Klaster strategiyasini amalga qo'llash asosida milliy va mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish g'oyasi yotadi (M.Porter va M.Enrayt) va uning quyidagi ustuvor jihatlari borligini ochib beradi:

- korxona (firma)lar uchun ta'minotchilarga, malakaviy xodimlarga, axborotlarga, xizmat va ta'lim markazlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishlari sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratiladi. Klasterlashgan mintaqalar korxonalarida mehnat unumdorligi 1,5 barobargacha, ish haqi esa 30 foizgacha ko'pligi o'z tasdig'ini topgan [16];

- ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlari yangi ilmiy-uslubiy ishlanmalarni yaratishi, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazishi, ishlab chiqarishga joriy etishi uchun shart-sharoitlar mavjud bo'ladi;

- ishlab chiqarish ilmiy izlanishlardagi xodimlar va mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirishga va yangi tovarlarni yaratishga imtiyozli sharoitlar bo'ladi [17].

Sanoat klasterlarini rivojlantirish mexanizmini amalga oshirishda yetakchi rol klasterlarni muvofiqlashtiruvchi kengashga tegishli bo'lib, bunga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hissa qo'shadi. Muvofiqlashtiruvchi kengash sanoat klasterini shakllantirish va rivojlantirishni boshlaydi hamda investitsion loyihalarni va rivojlanish dasturlarini amalga oshirishni tashkil qiladi.

Tadqiqot natijasida, hududlarda sanoat tarmoqlarini klasterlashning o'ziga xos afzalliklariga qaramay, ushbu jarayonga to'sqinlik qiladigan omillar aniqlandi va tizimlashtirildi (1-jadval).

1-jadval

Sanoat klasterlarining rivojlanishiga hissa qo'shadigan va to'sqinlik qiladigan omillar³⁹


Hissa qo'shadigan omillar	To'sqinlik qiluvchi omillar
- Ishlab chiqarish omillarining mavjudligi (xom ashyo, malakali kadrlar va boshqalar) va mahalliy resurslardan foydalanishda harakatchanlik. - Oliy ta'limning ilmiy va innovatsion salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari. - Sanoat va texnologik hamkorlik an'analari	- klasterlarning shakllanishi va ishlashi mexanizmining yo'qligi; - davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaslik; - ta'lim va tadqiqot dasturlarining sanoat va bozor ehtiyojlariga mos kelmasligi; - oliy va o'rta maxsus kasb-hunar muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va korxonalar o'rtasidagi zaif aloqalar; - sanoatda kichik va o'rta biznesning paydo bo'lishi va rivojlanishi, yordamchi va qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiy faoliyat (ma'muriy to'siqlar, moliyaviy resurslar va boshqalar) uchun ishbilarmonlik muhitining past sifati; - hududlarda sanoat korxonalarining ko'pchiligining nafaqat global, balki milliy va mintaqaviy bozorlarda ham past raqobatbardoshligi; - mamlakatning aksariyat sanoat korxonalari uchun rejalashtirish va rivojlantirishni boshqarishning qisqa muddatli gorizonti (shu bilan birga, hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, klasterlarni rivojlantirishdan haqiqiy foyda faqat 5-7 yildan keyin paydo bo'ladi).

³⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Sanoat klasterlarini shakllantirish bilan bog'liq muammolar va zaruriy shart-sharoitlarni o'rganish ularning rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari, asosiy omillari hamda samarali strategiyalarini aniqlash imkonini beradi. Bunda biznes subyektlari nuqtayi nazaridan klasterlarni shakllantirishning muhim shartlari sifatida klaster doirasida hamkorlik qilishdan manfaatdor bo'lgan yetakchi sanoat korxonalarining mavjudligi, shuningdek, korxonalar o'rtasida ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot, ta'lim, konsalting, logistika va boshqa yo'nalishlarda barqaror kooperatsion aloqalar hamda o'zaro hamkorlik mexanizmlarining shakllanganligi namoyon bo'ladi. Davlat boshqaruvi organlari nuqtayi nazaridan esa mamlakat va hududlar sanoatini rivojlantirishda klaster yondashuviga institutsional qiziqishning mavjudligi, shuningdek, davlat organlari va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikning amaliy tajribasi hamda samarali mexanizmlarining shakllanganligi sanoat klasterlarini rivojlantirishning muhim institutsional shartlari hisoblanadi.

Hududiy sanoat klasterlarining rivojlanish darajasini baholashning mavjud usullarini o'rganish asosida undan foydalanish uchun yagona va universal algoritm yo'qligini aniqladi. Amalda, sanoat ishlab chiqarishining miqdoriy tarkibiy qismini baholash odatiy holdir. Shu bilan birga ularning sifat komponenti deyarli ta'sir qilmaydi. Tahlilning miqdoriy tarkibiy qismi mutlaq ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ulardan faqat yillar davomida hududiy sanoat tarmoqlarining rivojlanishini dinamikada baholash uchun foydalanish mumkin.

Hududiy sanoat tarmoqlarini sanoat klasterlari shaklida rivojlantirish darajasini baholashning kompleks metodologiyasi doirasida hududlarda sanoat klasterlari rivojlanish darajasining miqdoriy va sifat tarkibiy qismlarini baholashga imkon beradigan algoritm taklif etildi (2-rasm).




2-rasm. Hududiy sanoat klasterlarini rivojlanish darajasini baholash algoritmi⁴⁰

⁴⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Hududiy sanoat klasterlarini rivojlanish darajasini baholash doirasida amalga oshirilgan tahlillarga tayangan holda, hududning mavjud va maqsadli sanoat profilining konfiguratsiyasini shakllantirish mumkin. Bu yerda hududning ustuvor iqtisodiy faoliyatini aniqlash, hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish siyosatini shakllantirish va amalga oshirish asosida amalga oshirilishi mumkin.

Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirishda sanoat siyosati institutining mamlakatning institutsional tuzilmasiga qo'shilishi muhim ahamiyatga ega. Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirishda sanoat siyosatini amalga oshirish mexanizmini yaratish doirasida mavjud davlat boshqaruv tizimida bir qator institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish taklif qilindi. Respublika darajasida mamlakatning sanoat klasterlarini rivojlantirish siyosatini har tomonlama rejalashtirishni amalga oshiradigan davlat rejalashtirish institutini tashkil etish tavsiya qilinadi. Hududiy darajada esa – institutning nazorat bo'linmalarini quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiq (3-rasm).




3-rasm. Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish siyosatini amalga oshirish mexanizmi⁴¹

⁴¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Sanoat klasterlarini rivojlantirish siyosatini rejalashtirish hududning mavjud sanoat yo'nalishini tubdan o'zgartirish, uni ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirish uchun mo'ljallanadi.

To'liq rejalashtirish tizimini yaratishning ajralmas qismi bo'lgan tizimni shakllantirish tamoyillarini hisobga olgan holda sanoat klasterlarini rivojlantirish siyosatini shakllantirish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

Rivojlanishning hozirgi bosqichi uch darajali elementlarning interpenetratsiyasi bilan tavsiflanganligi aniqlandi. Bu ko'p darajali klaster muhitini shakllantirish jarayonini kuchaytiradi va shunga mos ravishda ko'p darajali klaster siyosatini amalga oshirishni talab qiladi. Shu bilan birga, asosiy elementlar aniqlanib, klaster siyosatini amalga oshirish darajalari ishlab chiqildi. Klaster rivojlanishini rag'batlantirish va hududlar va davlatlar o'rtasida sanoatni chuqur iqtisodiy integratsiyalashning muvofiqlashtirilgan siyosatini amalga oshirish institutlari tizimini o'z ichiga olgan mintaqalararo va xalqaro darajalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu yondashuv O'zbekiston sanoati uchun yangi, global darajalarda klaster siyosatini jadal amalga oshirishga imkon beradi.



4-rasm. Hududiy innovatsion sanoat klasterlarni tashkil etish variantlari⁴²

⁴² Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Klaster ishtirokchilarining atrof-muhit obyektlari bilan o'zaro ta'siri qoidalari aniqlanib, bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning klaster ichida va tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri samaradorligini oshirish va sinergetik ta'sirni kuchaytirish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda hududiy innovatsion klasterlar birinchi navbatda innovatsion va hududiy muhitning elementi sifatida qaraladi (4-rasm).

Sanoat klasterlarini tashkil etishning an'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, hududiy innovatsion klasterlarni tashkil etish quyidagicha taklif etiladi:

- o'zaro hamkorlikning innovatsion va hududiy, tarmoq va integratsiya jihatlaridan tashqari, hamkorliklar sonining ko'payishi tufayli ularning maydonlari ichki va tashqi klaster muhiti shaklida klaster ichida ham, tashqarisida ham ajratilishi kerak. Mintaqaviy darajadagi infratuzilma obyektlari va hududiy innovatsion klasterlar o'rtasida mustahkam aloqalarning mavjudligi, ularni ichki klaster muhitining tarkibiy elementlari sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari hududiy sanoat tarmoqlarini sanoat klasterlari shaklida rivojlantirish hududlarning resurs, ishlab chiqarish, mehnat, ilmiy-ta'lim va innovatsion salohiyatini samarali birlashtirish imkonini berishini ko'rsatdi. Klasterlarning samarali faoliyati korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya, ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik hamda davlat va hududiy boshqaruv organlarining muvofiqlashtiruvchi ishtirokiga bog'liq.

Shu asosda sanoat klasterlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, klasterlarning rivojlanish darajasini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholash hamda hududning ustuvor sanoat yo'nalishlarini belgilash muhim hisoblanadi. Mazkur yondashuv hududiy sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, innovatsion faollik va raqobatbardoshlikni oshirish hamda sanoat salohiyatidan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari hududiy sanoat tarmoqlarini sanoat klasterlari shaklida rivojlantirish hududlarning mavjud resurs, ishlab chiqarish, mehnat, ilmiy-ta'lim va innovatsion salohiyatini yagona tizim doirasida birlashtirish imkonini berishini ko'rsatdi. Mazkur natija sanoat klasterlarini faqat bir xil yoki o'zaro bog'liq mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar majmuasi sifatida emas, balki korxonalar, ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, moliya institutlari, davlat boshqaruvi organlari va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning o'zaro manfaatli hamkorligiga asoslangan hududiy iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda aniqlangan klaster tarkibidagi "harakatlantiruvchi kuchlar", "qo'llab-quvvatlash tarmoqlari" va "qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar" o'rtasidagi o'zaro aloqalar sanoat klasterining barqaror ishlashida muhim ahamiyatga ega. Asosiy sanoat korxonalari klasterning ishlab chiqarish salohiyatini shakllantirsa, yetkazib beruvchilar va tegishli mahsulot ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish zanjirining uzluksizligini ta'minlaydi. Moliyaviy, ilmiy-tadqiqot, ta'lim, konsalting va innovatsion tashkilotlar esa klasterning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan xizmatlar va bilimlar oqimini shakllantiradi. Shu sababli klaster siyosatini ishlab chiqishda faqat yirik

korxonalarni birlashtirishga emas, balki ular atrofida qo'shimcha qiymat yaratadigan institutsional muhitni shakllantirishga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiq.

Mazkur xulosa M. Porterning klasterlash konsepsiyasida ilgari surilgan korxonalar o'rtasidagi hududiy yaqinlik va o'zaro raqobat hamda hamkorlikning uyg'unligi haqidagi yondashuv bilan hamohangdir [16]. Bunda korxonalar o'rtasidagi raqobat ularning samaradorligini oshirishga xizmat qilsa, kooperatsion aloqalar umumiy resurslardan foydalanish, texnologiyalarni joriy etish va bozor imkoniyatlarini kengaytirishga sharoit yaratadi. Tadqiqot natijalari ham sanoat klasterlarini rivojlantirishda aynan kooperatsiya va institutsional hamkorlikni kuchaytirish muhimligini ko'rsatdi.

Adabiyotlar tahlilida ko'rsatilganidek, ayrim tadqiqotlarda sanoatni hududiy rivojlantirish masalalari asosan iqtisodiy salohiyat va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari asosida baholangan bo'lsa, boshqa yondashuvlarda ekologik yoki ijtimoiy omillarga alohida e'tibor qaratilgan [7–15]. Tadqiqot doirasida taklif etilgan yondashuvning muhim jihati shundaki, hududiy sanoat klasterlarining rivojlanish darajasini baholashda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini birgalikda hisobga olish zarurligi asoslangan. Bu esa hudud sanoatining faqat ishlab chiqarish hajmi yoki korxonalar soni orqali emas, balki uning ixtisoslashuvi, konsentratsiyasi, bandlikdagi tarkibiy o'zgarishlar va sifat jihatlari orqali ham baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar orasida klasterning shakllanish va faoliyat yuritish mexanizmining yetarli darajada rivojlanmaganligi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning cheklanganligi, ta'lim va ilmiy-tadqiqot dasturlarining sanoat ehtiyojlariga to'liq mos kelmasligi hamda korxonalar bilan ta'lim va ilmiy muassasalar o'rtasidagi aloqalarning zaifligi muhim o'rin egallaydi. Ushbu muammolar bir-biridan mustaqil emas, balki o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va korxonalar o'rtasidagi aloqalarning zaifligi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyatlarini pasaytiradi, bu esa korxonalarning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sanoat klasterlarining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hududda xomashyo va mehnat resurslarining mavjudligi klasterni shakllantirish uchun zarur, biroq yetarli shart emas. Hududning ilmiy va innovatsion salohiyati, ishlab chiqarish va texnologik hamkorlik an'analari, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati hamda tegishli infratuzilmaning rivojlanganligi klasterning uzoq muddatli samaradorligini belgilovchi omillar sifatida qaralishi lozim. Shu jihatdan hududiy sanoat siyosatini shakllantirishda resurslarning mavjudligini aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, ushbu resurslarning o'zaro bog'langan ishlab chiqarish tizimiga aylanish imkoniyatini baholash zarur.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish siyosatini amalga oshirish mexanizmi ushbu jarayonni mamlakat va hudud darajalarida muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Milliy darajada sanoat siyosatining umumiy maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari va uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyasi shakllantirilsa, hududiy darajada mavjud sanoat profili, resurs salohiyati, ixtisoslashuv va mahalliy biznes muhitining xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Bunday ikki

darajali yondashuv hududlarning o'ziga xos iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Hududning mavjud va maqsadli sanoat profilini shakllantirishga qaratilgan yondashuv ham tadqiqotning muhim natijalaridan biridir. Hududiy sanoat tarmoqlarini "kuchli", "orqada qolish", "chegara rivojlanmoqda" va "passiv" guruhlariga ajratish orqali hudud uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni aniqlash mumkin. Bunday tasniflash sanoat siyosatining resurslarini barcha tarmoqlarga bir xil taqsimlash o'rniga, yuqori rivojlanish va klasterlash salohiyatiga ega bo'lgan yo'nalishlarga ustuvor yo'naltirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirishda innovatsion infratuzilmaning ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Texnoparklar, biznes-inkubatorlar, texnologik platformalar, prototiplash va sanoat dizayni markazlari hamda boshqa rivojlanish institutlarining klaster tizimiga integratsiyalashuvi yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, innovatsion infratuzilma faqat texnologik xizmatlar ko'rsatish vositasi emas, balki korxonalar, ilmiy tashkilotlar va investorlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiruvchi institutsional mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda aniqlangan yana bir muhim jihat — sanoat klasterlarini rivojlantirish uzoq muddatli yondashuvni talab qilishi hisoblanadi. Korxonalarning qisqa muddatli rejalashtirishga yo'naltirilishi klasterlashdan olinadigan samarani pasaytirishi mumkin. Chunki kooperatsion aloqalarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash va yangi bozorlarni egallash ma'lum vaqt talab qiladi. Shu sababli klaster siyosatini ishlab chiqishda qisqa muddatli natijalar bilan bir qatorda, o'rta va uzoq muddatli samaradorlik mezonlarini ham hisobga olish zarur.

Umuman, tadqiqot natijalari sanoat klasterlarini rivojlantirishni hududiy sanoat siyosatining alohida yo'nalishi sifatida emas, balki hududning umumiy iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan integratsiyalashgan tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Bunda klaster siyosati sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini chuqurlashtirish, innovatsion faollikni kuchaytirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud. Hududiy sanoat klasterlarining rivojlanish darajasini baholash uchun taklif etilgan yondashuv miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini birlashtirishga imkon bersa-da, uning amaliy samaradorligini barcha hududlar kesimida bir xil sharoitda empirik sinovdan o'tkazish zarur. Shuningdek, klasterlarning rivojlanish samaradorligini baholashda korxonalararo real kooperatsiya hajmi, innovatsion loyihalarning tijorat samaradorligi va klaster ishtirokchilarining uzoq muddatli iqtisodiy natijalarini chuqurroq o'rganish kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari hududiy sanoat tarmoqlarini sanoat klasterlari shaklida

rivojlantirish hududlarning ishlab chiqarish, resurs, mehnat, ilmiy-ta'lim va innovatsion salohiyatini birlashtirishning samarali yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Sanoat klasterlarining samarali faoliyati korxonalar o'rtasidagi kooperatsion aloqalar, ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik, moliyaviy va innovatsion infratuzilma hamda davlat boshqaruvi organlarining muvofiqlashtiruvchi ishtirokiga bog'liq.

Tadqiqotda hududiy sanoat klasterlarining tarkibiy tuzilishi va ularning ichki hamda tashqi muhiti tizimlashtirildi. Shuningdek, klasterlarning rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlandi. Klasterlarni shakllantirishda mahalliy resurslardan foydalanish, malakali kadrlar, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot salohiyati, ishlab chiqarish kooperatsiyasi hamda innovatsion infratuzilmaning mavjudligi muhim omillar sifatida belgilandi.

Hududiy sanoat klasterlarining rivojlanish darajasini baholashda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini uyg'unlashtiruvchi kompleks yondashuv taklif qilindi. Ushbu yondashuv hududning ixtisoslashuvi, bandlikdagi tarkibiy o'zgarishlar, sanoat konsentratsiyasi va sanoat tarmoqlarining sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish imkonini beradi. Mazkur metodik yondashuv asosida hududning mavjud va maqsadli sanoat profilini aniqlash hamda klasterlash uchun ustuvor tarmoqlarni belgilash imkoniyati kengayadi.

Amaliy jihatdan hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish siyosatini mamlakat va hudud darajalarida o'zaro muvofiqlashtirish, davlat organlari, biznes federatsiyalari, moliya institutlari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim tashkilotlari hamda sanoat korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, klaster siyosatini qisqa muddatli manfaatlar bilan cheklamasdan, uzoq muddatli sanoat rivojlanishi va hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirish zarur.

Taklif etilgan yondashuvdan hududlarning sanoat salohiyatini baholash, ustuvor sanoat yo'nalishlarini aniqlash, kooperatsion aloqalarni rivojlantirish va hududiy sanoat siyosatini shakllantirishda foydalanish mumkin. Uning amaliyotga joriy etilishi hududiy sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faollikni kuchaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va mavjud resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бест М. Новое конкуренция. Институты промышленного развития. М.ГТЕИС, 2004 г. – 356с.
2. Егорова А. О., Кузнецова С. Н. Промышленные парки как платформа для развития человеческого и финансового капитала // Научное обозрение. 2016. № 18. С. 138-141
3. Власкин Г.А. Ленчук Е.Б. Промышленная политика в условиях перехода к инновационной экономике: опыт стран Центральной и Восточной Европы и СНГ. М.:Наука 2006. – 246с.
4. Кузнецов В. П., Кузнецова С. Н., Лапаев Д. Н. Теоретические аспекты развития организационно-экономического механизма формирования промышленных парков. Казань, изд-во Познание Института экономики,

управления и права. 2014. 148 с.

5. Кузнецова С. Н., Кузнецов В. П. Методика оценки интегральной эффективности инвестиционных проектов в рамках промышленных парков: монография / Мининский университет. Нижний Новгород. 2015. 200 с.

6. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes.-T.: Sharq, 2002.-183b.

7. Колосова Т.В. Обеспечение устойчивого развития предприятия на основе повышения его инновационного потенциала: автореф. дис. ...д-ра экон. наук: 08.00.05. – Нижний Новгород, 2011. – 44 с.;

8. Коряков А.Г. Методологические вопросы устойчивого развития предприятий // Вопросы экономики и права. – 2012. - №4. С.110-114.

9. Худякова Т.А. Анализ современных научных подходов к построению интегрального показателя устойчивости предприятия // Вестник НГИЭИ, №12(67), 2016. – С.122-130.

10. Сисина Н.Н. О методических аспектах экономического анализа природоохранной деятельности в условиях перехода предприятий к устойчивому развитию // Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. – 2012. -№2. – С.77-80.

11. Урсул А.Д., Урсул Т.А. Устойчивое развитие и безопасность: Учебное пособие // Под общ. ред. А.Д. Урсула, Т.А. Урсула. – М., 2013.

12. Кучерова Е.Н. Современный подход к устойчивому развитию предприятий. [Электронный ресурс]. – URL: <http://www.pandia.ru/text/77/288.3468.php>.

13. Карпова О.К. Планирование устойчивого развития промышленного предприятия на основе процессного подхода: инструментально-методическое обеспечение: автореф. дис. ...канд. экон. наук: 08.00.05. –Ростов н/Д, 2010. – 28 с.

14. Мельник Т.Е. Управление устойчивым развитием промышленных предприятий на основе использования эффективного комплексного показателя его оценки: автореф. дис... канд. экон. наук: 08.00.05. – Орел, 2009. – 24 с.

15. Хомяченкова Н.А. Механизм интегральной оценки устойчивости развития промышленных предприятий: автореф. дис... канд. экон. наук. – М., 2011. – С.24.

16. Портер М. Конкуренция / пер. с англ. О.Л. Пелявского [и др.]. М., 2005. С. 258.

17. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // Word Link. 1992. July/August. No 5. P. 24-25.